



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 6-fevral

54-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 4-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 17-yanvardagi PQ–12-son qarori ijrosi haqida”gi 48-6-0-Q/25-sonli qarori haqida

Hududlarda aholi bandligini ta‘minlash, ularni tadbirkorlikka jalb qilish va daromadlarini oshirish bo‘yicha yangi yondashuvlarni keng joriy qilish, mahallalarda ehtiyojmand aholi qatlami bilan manzilli ishlashni tashkil etish va ijtimoiy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, mavjud resurslar, imtiyozlar va preferensiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish va kambag‘allikni qisqartirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 17-yanvardagi PQ–12-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 4-fevraldagi 48-6-0-Q/25-sonli qarorlarini ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 4-fevraldagi 48-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ–12-son qarori bilan:

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank, mas‘ul vazirliklar, idoralar, tijorat banklari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda ishlab chiqilgan 2025-yilda aholini daromadli mehnat bilan ta‘minlash dasturi (keyingi o‘rinlarda – Dastur) hamda uning doirasida quyidagilar:

aholini daromadli mehnat bilan ta‘minlashning yig‘ma maqsadli ko‘rsatkichlari
1, 1.1 – 1.14-ilovalarga muvofiq;

tijorat banklari tomonidan aholi bandligini ta‘minlash va tadbirkorlikka jalb qilishning maqsadli ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

ishsiz aholini kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitishning yig‘ma maqsadli ko‘rsatkichlari
3, 3.1 – 3.14-ilovalarga muvofiq;

aholini kambag‘allikdan chiqarishning maqsadli ko‘rsatkichlari 4, 4.1 – 4.14-ilovalarga muvofiq;
yangi yondashuvlar asosida aholi bandligini ta‘minlash, tadbirkorlikka jalb qilish hamda kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

2025-yilda Dastur ijrosi doirasida 5,2 million aholini ish bilan band qilish maqsadida:

a) Markaziy bank (T. Ishmetov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Zaxidov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov):

tadbirkorlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ularning muammolarini hal qilish hamda faoliyatini kengaytirish hisobiga 1 470 ming nafar;

ishsizlarni mavjud bo‘sh ish o‘rinlariga joylashtirish orqali 430 ming nafar;

har bir mahallada o'rtacha 40 tadan jami 377,6 mingta mikroloyihani amalga oshirish hisobiga 755 ming nafar, shuningdek, "Mahalla loyihasi" dasturi doirasida soddalashtirilgan tartibda loyihalarni moliyalashtirish uchun yangi kredit mahsulotlarini joriy qilish orqali 250 ming nafar;

hududlarda drayver loyihalarni ishga tushirish hisobiga 122 ming nafar hamda mikrosanoat markazlarini barpo etish loyihalari hisobiga 21 ming nafar;

aholiga yer maydonlarini ijaraga berish, shu jumladan, "kompaniya – kooperativ – dehqon xo'jaligi» tamoyili asosida kooperativlar tashkil etish hisobiga 300 ming nafar;

b) Qishloq xo'jaligi vazirligi (I. Abdurahmonov), O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (A.Xaitov) aholi tomorqasidan samarali foydalanishni tashkil etish hamda fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash orqali 1 169 ming nafar;

d) Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (L.Kudratov), Savdo-sanoat palatasi (D. Vahobov) investitsiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga 290 ming nafar;

e) Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (Sh.Xidoyatov) qurilish sohasidagi loyihalarni amalga oshirish hisobiga 169 ming nafar;

f) Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B.Zaxidov), Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh.Shermatov), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K.Sharipov) aholini kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitib, ishga joylashtirish hisobiga 266 ming nafar aholini daromadli mehnat bilan ta'minlashga mas'ul etib belgilanganligi;

belgilanishicha, Dasturning amalga oshirilishini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida 126 trillion so'm, shu jumladan:

tijorat banklarining kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun 120 trillion so'm kredit mablag'lari, shundan 2,4 milliard AQSH dollari miqdoridagi xorijiy kredit liniyalari;

og'ir toifadagi 1 000 ta mahallalar infratuzilmasini yaxshilash uchun 3,2 trillion so'm byudjet mablag'lari;

tuman va shaharlarning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida tadbirkorlikning rivojlanishiga turtki beruvchi drayver loyihalar uchun zarur infratuzilmani yaratishga 1 trillion so'm byudjet mablag'lari;

maqsadli jamg'armalar orqali kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashni rag'batlantirish uchun 952 milliard so'm yo'naltirilishi;

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, "Parrandasanoat" uyushmasi va "Mikrokreditbank" ATBning 2025-2026-yillarda Namangan, Toshkent, Xorazm va boshqa viloyatlarda "Parranda Investment" MCHJ tomonidan parrandachilik sohasida kooperatsiya tizimida zamonaviy so'yish korxonalar (kushxonalar) va muzlatkichli omborxonalar, mahsulotlar va chiqindilarni qayta ishlash, naslli jo'jalar yetishtirish va parranda mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlarini o'z ichiga olgan tayyor biznes loyihalarini amalga oshirish to'g'risidagi taklifi ma'qullanganligi;

bunda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi parrandachilik sohasida kooperatsiya tizimidagi tayyor biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun 50 million AQSH dollari miqdoridagi mablag'larni "Mikrokreditbank" ATBning ustav kapitalini oshirishga yo'naltirganligi;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi (A.Abduxakimov) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda 2025-yilda kambag'al oila a'zolarini jalb etgan holda:

6-ilovaga muvofiq 20 ming gektar o'rmon fondi yerlarida sanoatbop, manzarali va mevali daraxt turlaridan iborat o'rmonlar barpo etish, ko'chatxonalar tashkil etish va dorivor o'simliklar yetishtirish loyihalarini amalga oshirsin. Bunda kambag'al oila a'zolariga mazkur yer uchastkalarida o'z ehtiyojlari uchun sabzavot, poliz va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga ruxsat etilishi;

7-ilovaga muvofiq jami 100 gektar yer uchastkalarida brussonetiya daraxtini yetishtirish bo'yicha pilot loyihalarni amalga oshirishi;

bunda tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib, kelgusi yillarda respublikaning boshqa hududlarida mazkur tajribani ommalashtirish va brussonetiya daraxtini qayta ishlash chorolari ko'rilishi;

belgilanishicha, 2025-yil 1-iyuldan boshlab "Ekofaol fuqaro" platformasiga o'zi ekan daraxti to'g'risida ma'lumotlar kiritgan kambag'al oilalar a'zolariga o'rmon fondi yerlarida ekilgan har 100 ta daraxt uchun Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi mablag'lar hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida subsidiya ajratish tartibi joriy etilishi, bunda subsidiya yil davomida ikkiga bo'lib (ko'chatlar ekilgan vaqtda hamda ularni parvarishlash davridan keyin) teng ulushlarda to'lanishi;

Energetika vazirligining 8-ilovaga muvofiq og'ir toifadagi 300 ta mahallada kooperatsiya asosida 180 – 500 kVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyalarini barpo etish to'g'risidagi taklifi ma'qullanganligi; mahallalarda ijara berilgan yer maydonlarida “kompaniya – kooperativ – dehqon xo'jaligi” tamoyili asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishning zamonaviy usullarini joriy etish maqsadida Markaziy bank, tijorat banklarining quyidagi takliflariga rozilik berilganligi:

a) ish tajribasiga ega tadbirkorlik subyektlari va eksportchi korxonalarini jalb qilgan holda aholiga ijara asosida ajratilgan yer uchastkalarida 9-ilovaga muvofiq namunali loyihalar doirasida 492 ta qishloq xo'jaligi kooperativlarini tashkil etish orqali “kompaniya – kooperativ – dehqon xo'jaligi” tamoyili asosida mahsulotni uzluksiz yetkazib berish tizimini joriy qilishi, bunda:

yer maydoni 10 gektardan kam bo'lmagan konturlardan iborat har bir tumanda 40 gektar yer maydonlarini tanlab olishi;

tanlab olingan yerlarda yangi turdagi ekinlar plantatsiyalarini tashkil qilish orqali qo'shilgan qiymat yaratish loyihalarini amalga oshirishi;

b) 2022 – 2024-yillarda dehqon xo'jaliklari tashkil etish uchun ajratilgan va kelgusida aholiga ijara beriladigan yer maydonlarida yer uchastkasidan ruxsat etilgan foydalanish asosiy turiga muvofiq “bir kontur – bir mahsulot” tamoyili asosida yengil konstruksiyali issiqxona, intensiv bog', tokzor, anorzor, gulchilik va ko'chatchilik plantatsiyalarini yaratish va rezavor mevalar yetishtirish loyihalarini amalga oshirishga ruxsat berishi;

d) 2025-yil 1-apreldan 2028-yil 1-yanvarga qadar yangi tashkil etiladigan qishloq xo'jaligi va dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash kooperativlari uchun ijtimoiy soliq hamda ularga ishga qabul qilingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarini 1 foiz etib belgilashi;

e) Kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan oilalar a'zolariga qishloq xo'jaligi kooperativlari ustav fondiga ulush sifatida kiritish uchun Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasi hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha miqdorda subsidiyalar ajratishi;

2025-2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida mikrosanoat markazlarini barpo etish loyihalarining manzilli ro'yxati 10-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Turizm qo'mitasi (U.Shadiyev) 11-ilovaga muvofiq turizm salohiyati yuqori bo'lgan 53 ta mahallada yangi turizm xizmatlarini yo'lga qo'yib, 1,4 ming nafar kambag'al oilalar a'zolari daromadlarini oshirishga ko'maklashishi;

2025-yil 1-apreldan boshlab 12-ilovaga muvofiq 12 ta yangi kasb yo'nalishlari bo'yicha o'quv kurslari tashkil etilishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklarining:

2025-yil yakuniga qadar 60 ta tuman va shaharni kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar yuzasidan takliflari 13-ilovaga muvofiq;

og'ir toifadagi 71 ta tumanda kambag'allik va ishsizlikni keskin kamaytirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar yuzasidan takliflari 14-ilovaga muvofiq ma'qullanganligi;

2025-yil yakuni bilan 60 ta ilg'or tuman va shaharni kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirish bo'yicha ishchi guruh tarkibi 15-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi va uning zimmasiga 2025 yilda ushbu tuman va shaharlarda 2,1 million nafar aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash va 431 ming nafar aholini kambag'allikdan chiqarish vazifasi yuklatilganligi;

og'ir toifadagi 71 ta tumanda kambag'allik va ishsizlikni keskin kamaytirishga ko'maklashish bo'yicha ishchi guruh 16-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilganligi va unga quyidagi vazifalar yuklatilganligi:

mehnat bozoriga kirib keluvchi fuqarolarning bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishda mahallalar kesimida manzilli ishlash tizimini yo'lga qo'yish, ishsiz fuqarolarning manzilli ro'yxatini aniqlash maqsadida vazirlik va idoralar:

2025-yil 1-martga qadar 17-ilovaga muvofiq ma'lumotlarni jismoniy shaxslarning shaxsiy identifikatsiya raqami bilan birga Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga taqdim etishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 18-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi e'tiborga olinsin.

3. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi tomonidan Iqtisodiyot va moliya bo'limi, tijorat banklari, mas'ul idoralar bilan birgalikda ishlab chiqilgan 2025-yilda aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash dasturi (keyingi o'rinlarda – Dastur) hamda uning doirasida quyidagilar:

aholini daromadli mehnat bilan ta'minlashning yig'ma maqsadli ko'rsatkichlari 1-ilovalarga muvofiq;

ishsiz aholini kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitishning yig'ma maqsadli ko'rsatkichlari 2-ilovalarga muvofiq;

aholini kambag'allikdan chiqarishning maqsadli ko'rsatkichlari 3-ilovalarga muvofiq;

yangi yondashuvlar asosida aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka jalb qilish hamda kambag'allikdan chiqarish bo'yicha "Yo'l xaritasi" 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (A.Abdusalomov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (Z.Axmadjonov) bir hafta muddatda mutasaddi tashkilot va idoralar tomonidan Dastur doirasida sektorlar va mahallalar kesimidagi oyma-oy maqsadli ko'rsatkichlar tuman kengashida muhokamadan o'tkazilishini ta'minlasin.

5. 2025-yilda Dastur ijrosi doirasida 21 768 nafar aholini ish bilan band qilish maqsadida:

a) Tijorat banklari (A.Qo'chqarov, O.Ergashev, K.Mirzaliyev), Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (Z.Axmadjonov), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jurabayev):

tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ularning muammolarini hal qilish hamda faoliyatini kengaytirish hisobiga 5 817 nafar;

ishsizlarni mavjud bo'sh ish o'rinlariga joylashtirish orqali 2 307 nafar;

har bir mahallada o'rtacha 40 tadan jami 1600 ta mikroloyihani amalga oshirish hisobiga 3 200 nafar, shuningdek, "Mahalla loyihasi" dasturi doirasida soddalashtirilgan tartibda loyihalarni moliyalashtirish uchun yangi kredit mahsulotlarini joriy qilish orqali 845 nafar;

hududlarda drayver loyihalarni ishga tushirish hisobiga 375 nafar; mikrosanoat markazlarini barpo etish loyihalari hisobiga 545 nafar;

aholiga yer maydonlarini ijaraga berish, shu jumladan, "kompaniya – kooperativ – dehqon xo'jaligi" tamoyili asosida kooperativlar tashkil etish hisobiga 42 nafar;

b) Qishloq xo'jaligi bo'limi (A.Xakimov), O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari tuman kengashi (X.Inamov) aholi tomorqasidan samarali foydalanishni tashkil etish hamda fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash orqali 4 750 nafar;

v) Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi tuman bo'limi (S.Egamberdiyev) investitsiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga 496 nafar;

d) Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (A.Xudoyberdiyev) qurilish sohasidagi loyihalarni amalga oshirish hisobiga 1 926 nafar;

e) Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (Z.Axmadjonov), professional ta'lim muassasalari aholini kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitib, ishga joylashtirish hisobiga 1 608 nafar aholini daromadli mehnat bilan ta'minlashga mas'ul etib belgilansin.

6. Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (Z.Axmadjonov) tijorat banklari, mas'ul idoralar rahbarlari hamda mahallalarga birlashtirilgan vakillar tomonidan Dasturda belgilangan vazifalar va loyihalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilsin. Bunda:

mas'ul rahbarlar va xodimlar tomonidan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish borasida mahallalarda amalga oshirilayotgan ishlar holatini tanqidiy baholab borsin;

vazifalar ijrosi va erishilgan natijalardan kelib chiqib, mas'ul rahbar va xodimlarni rag'batlantirish yoki ularga nisbatan qonunchilikda belgilangan qat'iy choralar ko'rish yuzasidan takliflar kiritilsin;

har oy yakuni bo'yicha Dastur ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi, yuzaga kelgan qo'llanilgan barcha ishlar natijadorligi hamda mutasaddi rahbarlarning mas'uliyatini oshirish yuzasidan tuman hokimligiga axborot kiritib borsin.

7. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limi (T.Mamatqulov) 2025-yilda kambag'al oila a'zolarini jalb etgan holda:

5-ilovaga muvofiq 16 gektar o'rmon fondi yerlarida sanoatbop, manzarali va mevali daraxt turlaridan iborat o'rmonlar barpo etish, ko'chatxonalar tashkil etish va dorivor o'simliklar yetishtirish loyihalarini amalga oshirsin. Bunda kambag'al oila a'zolariga mazkur yer uchastkalarida o'z ehtiyojlari uchun sabzavot, poliz va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga ruxsat etiladi.

8. Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (Z.Axmadjonov), Tijorat banklari (A.Qo'chqarov, O.Ergashev, K.Mirzaliyev), bilan birgalikda 2025-yil yakuniga qadar tijorat banklari va tadbirkorlik subyektlarini jalb qilgan holda bo'sh turgan bino-inshootlar negizida uskunasoziqlik yo'nalishi bo'yicha o'quv-ishlab chiqarish sexlarini tashkil etsin.

Bunda ushbu sexlarda metallga ishlov berish uskunalari, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan asboblari, qurilish asboblari, o'lchash vositalarini ishlab chiqarishni tashkil qilish, shuningdek, ushbu yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash, malakasini oshirish va bandligini ta'minlash nazarda tutilsin

9. Namangan viloyati hokimining mazkur qarori bilan tumanning kambag‘allik va ishsizlikni keskin kamaytirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar 6-ilovaga muvofiq ma‘qullanganligi inobatga olinsin.

10. Tumanda kambag‘allik va ishsizlikni keskin kamaytirishga ko‘maklashish bo‘yicha ishchi guruhi 7-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilsin va unga quyidagi vazifalar yuklatilsin:

2025-yilda 21 768 nafar aholini daromadli mehnat bilan ta‘minlash va 7 006 nafar aholini kambag‘allikdan chiqarish;

boshqa hududlardan ilg‘or tadbirkorlarni olib kelib, ularga qo‘shimcha kreditlar ajratish orqali ushbu tumanlarda yuqori daromadli ish o‘rinlarini tashkil etish;

har hafta joylarga chiqqan holda aholi va tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish hamda ularning muammolarini hal qilib, loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish.

11. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (O.Qodirov), Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi tuman bo‘limi (D.Jo‘raboyeva), Axborot xizmati (Sh.Kenjayeov) bilan birgalikda mahallalarda kambag‘al oila a‘zolarining ishlash ishtiyoqini va tashabbuskorligini oshirishga qaratilgan “Farovon hayotga ilk qadam”, “Ishonch” loyihalari va “Ma‘rifat orqali kambag‘allikni qisqartirish” dasturini amalga oshirish orqali:

o‘z mehnati bilan kambag‘allikdan farovonlikka erishgan oilalarning ijobiy tajribalarini ommalashtirish, shu jumladan, mahallalarda “Farovonlikka erishgan eng namunali oila” tanlovlarini o‘tkazish;

el orasida katta obro‘ga ega olimlar, yozuvchi-shoirilar, teatr, madaniyat, san‘at arboblari va mahalladagi hojilarni (oqsoqollarni) “ma‘naviy ko‘makchi” sifatida og‘ir toifadagi mahallalarga biriktirgan holda kambag‘al aholi qatlamining dunyoqarashini o‘zgartirish;

og‘ir toifadagi mahalladagi “mahalla yettiligi” a‘zolari, mahalla servis kompaniyalari rahbarlari hamda kambag‘al oilalar vakillarini kaskad usulida o‘qitish choralari ko‘rsin.

12. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish o‘z zimmasida qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Mansurov

Mingbuloq tuman hokimining
2025-yil 6-fevraldagi
54-6-81-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Mingbuloq tumanida aholini daromadli mehnat bilan ta'minlashning
YIG'MA MAQSADLI KO'RSATKICHLARI**

№	Tuman nomi	Aholi bandligi ta'minlash (nafar)	Shu jumladan sohalar kesimida	Tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga	shundan	aholini doimiy ishga joylashtirish	aholini tadbirkorlikka jalb qilish	Qishloq xo'jaligi sohasida	Qurilish sohasida
			Investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga						
1	Mingbuloq tumani	21768	496	14596	5817	8779	4750	1926	

Mingbuloq tuman hokimining
2025-yil 6-fevraldagi
54-6-81-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Mingbuloq tumanida ishsiz aholini kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish bo'yicha

MAQSADLI KO'RSATKICHLARI

№	Tuman nomi	Kasb-hunar va tadbirkorlikka ko'nikmalariga o'qitiladigan fuqarolar (nafar)	Шу жумладан					
			Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasining «Kasbiy ta'lim dasturi» asosida		Raqamli texnologiyalar viloyat sho'basining "Raqamlashtirish orqali farovonlik sari dasturi" asosida		Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasiga tegishli texnikumlardagi qisqa muddatli kurslarda	
			O'qitiladigan fuqarolar soni	Qamrab olinadigan mahallalar soni	O'qitiladigan fuqarolar soni	Qamrab olinadigan mahallalar soni	O'qitiladigan fuqarolar soni	Qamrab olinadigan mahallalar soni
1	Mingbuloq tumani	1608	1078	40	130	40	400	8

Mingbuloq tuman hokimining
2025-yil 6-fevraldagi
54-6-81-Q/25-son qaroriga
3-ilova

**Mingbuloq tumanida 2025-yilda aholini kambag'allikdan chiqarishning yo'nalishlar
kesimidagi**

MAQSADLI KO'RSATKICHLARI

№	Kambag'allikdan chiqarish chora-tadbirlari	Mingbuloq tumani
	I. Barcha yo'nalishlar	1530
1	Doimiy ish o'rinlariga joylashtirish	611
2	Tadbirkorlikka jalb qilish	423
3	Qishloq xo'jaligi yerlarini ijaraga berish	135
4	Kasb-hunarga o'rgatib, band qilish	35
5	Boshqa yo'nalishlar	326
	II. Shu jumladan, yangi yondashuvlar asosida	482
1	O'rmon fondi yerlarida o'rmonlar va ko'chatxonalar tashkil etish, dorivor o'simliklar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish	16
2	Brussonetiya daraxtini yetishtirish va qayta ishlash loyihalarini amalga oshirish	0
3	Kooperatsiya asosida 180 — 500 kVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyalarini barpo etish	0
4	“Kompaniya — kooperativ — dehqon xo'jaligi” tamoyili asosida qishloq xo'jaligi kooperativlarini tashkil etish	42
5	Turizm xizmatlarini rivojlantirish va turizm mahallalarini barpo etish	0
6	Axborot texnologiyalari sohasida zamonaviy kasblarga bepul o'qitish	20
7	Ishsiz aholini texnikumlarda kasb-hunarga o'qitish	400
8	Mahalla servis kompaniyalarini tashkil etish	13
9	Boshqaruv servis kompaniyalarida qo'shimcha xizmatlarni joriy etish	0
10	Boshqaruv servis kompaniyalari hududini obodonlashtirishi va ko'kalamzorlashtirishi	1
11	Farmatsevtika yo'nalishida kooperatsiya asosida dorivor o'simliklarni yetishtirish	0

Mingbuloq tuman hokimining
2025-yil 6-fevraldagi
54-6-81-Q/25-son qaroriga
4-ilova

Yangi yondashuvlar asosida aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka jalb qilish hamda kambag'allikdan

chiqarish bo'yicha

“YO'L XARITASI”

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
I. Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va ularning bandligini ta'minlash orqali kambag'allikni qisqartirish					
1	Har bir mahallada kichik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida o'rtacha 40 tadan jami 1600 ta mikroloyihalarni amalga oshirish.	1. Mahallalarda amalga oshiriladigan mikroloyihalarning oylar kesimida parametrlarini tasdiqlash. 2. Hokim yordamchilari va mahalla bankirlari ko'magida tashabbuskorlarni aniqlash va mikroloyihalarni ishga tushirish orqali 2025 yilda 3200 nafar aholi bandligini ta'minlash.	2025-yil 1-fevral Har oyda	-	Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi, tijorat banklari
2	“Kompaniya – kooperativ – dehqon xo'jaligi” tamoyili asosida uzluksiz yetkazib berish tizimini yaratish.	1. Tajribali tadbirkorlar va eksportchi korxonalarini jalb qilib, kambag'al oilalarga ijara asosida ajratilgan yer uchastkalarida 33 ta qishloq xo'jaligi kooperativlarini tashkil etish. 2. Kambag'al oilalar a'zolariga qishloq xo'jaligi kooperativlari ustav fondiga ulush sifatida kiritish uchun BHMning 10 baravarigacha miqdorida subsidiyalar ajratish.	2025-yil davomida 2025-yil davomida	O'z mablag'lari hisobidan Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasi	Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi, Iqtisodiyot va moliya bo'limi

3	Tumanda baliqchilik va parrandachilik hamda asalarichilik yoʻnalishida aholi xonadonlari bilan kooperatsiya asosida yangi loyihalarni amalga oshirish.	1. Kooperatsiya asosida loyihalarni amalga oshirish istagi mavjud xonadonlarni aniqlab, ularni lider tadbirkorlarga birlashtirish.	2025-yil fevral-mart	-	“Mikrokreditbank” ATB Mingbuloq BXO filiali, AT “Xalq bank” Mingbuloq BXM filiali
4	Har bir mahallada 10 tadan xonadonga yiliga 60 – 70 mln soʻm kafolatli daromad keltiradigan loyihalar paketini taqdim etish.	1. Loyiha paketi yetkazib beriladigan jami 400 xonadonning manzilli roʻyxatini shakllantirish.	2025-yil 1-fevral	-	Tuman hokimining birinchi oʻrinbosari, Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi
5	Kambagʻal oilalar tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarni sotishni ragʻbatlantirish.	Kambagʻal oilalar tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarni sotish uchun dehqon bozorlari va supermarketlarda maxsus peshtaxtalar va savdo joylarini tashkil etish.	2025-yil mart-aprel	Tashabbuskorlar mablagʻlari	Tuman hokimining birinchi oʻrinbosari, Iqtisodiyot va moliya boʻlimi
6	Xorijiy mutaxassislar bilan birga biznesinkubatorlar koʻmagida aholini tadbirkorlikka jalb qilish.	Tashabbuskor oilalarga ularning biznes loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga bir yil davomida hamrohlik qilish. Bunda tashabbuskorlarni tadbirkorlikka oʻqitish, biznes reja ishlab chiqish, kredit jalb qilishga koʻmaklashish, hamkorlar topish va sotish zanjirlarini tashkil etishga koʻmak beriladi.	2025-yil davomida	Jahon banki mablagʻlari	Tuman hokimining birinchi oʻrinbosari, Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi

7	Kunlik mehnat markazlari faoliyatini transformatsiya qilish orqali aholi bandligiga ko'maklashish.	1. Kunlik mehnat markazi faoliyatini tugatish. 2. Xususiy sektorni jalb qilgan holda, samarasiz foydalanilayotgan kunlik mehnat markazlarining bino-inshootlari negizida ishsiz aholini kasb-hunarga o'qitish va bandligiga ko'maklashish maqsadida xizmat ko'rsatish obyektlari va kasb-hunarga o'qitish markazlarini tashkil etish. Bunda ishsiz aholining doimiy bandligini ta'minlash.	2025-yil yanvar-fevral 2025-yil davomida	- Tashabbuskorlar mablag'lari	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari, Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
II. Atrof-muhitni muhofaza qilish va turizmni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish					
8	16 gektar o'rmon fondi yerlarida o'rmonlar barpo etish, ko'chatxonalar tashkil etish va dorivor o'simliklar yetishtirish loyihalarini amalga oshirish.	1. Mahallalardagi 16 nafar kambag'al oilalarning o'rmon fondi yerlarida daromad olishiga ko'maklashish, jumladan: 0,5 gektar sanoatbop, manzarali va mevali daraxt turlaridan iborat o'rmon barpo etish va qayta tiklash ishlariga; 0,5 gektar ko'chatxonalar tashkil etishga; 10,0 gektar yer maydonlarida dorivor o'simliklarni yetishtirish ishlariga; 5 gektar yer maydonida sabzavot, poliz ekinlari va boshqa mahsulotlar yetishtirish uchun kambag'al oilalarni jalb qilish.	2025-yil ekish mavsumi	O'rmon xo'jaliklari mablag'lari	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari, O'rmon xo'jaligi agentligi tuman vakili, Qishloq xo'jaligi bo'limi
III. Elektr energiyasi loyihalarini ishga tushirish hisobiga kambag'allikni qisqartirish					
9	Mahallalarda kichik quvvatli quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish va zarur infratuzilmalarni yaratish uchun mablag'larni jalb qilish.	1. Xalqaro moliya institutlari va potensial donor tashkilotlarga loyiha haqida «Road Show» o'tkazish. 2. Loyiha uchun mablag'larni jalb qilish.	2025-yil yanvar-fevral 2025-yil davomida	Ijrochilar mablag'lari -	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi, Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi
IV. Kambag'al oilalarning uy-joy sharoitlarini yaxshilash					

10	Kambag'al oilalarning uy-joylari qiymatini oshirishga ko'maklashish hisobiga kambag'allikni qisqartirish.	1. Ushbu tajribani boshqa hududlarda ommalashtirish bo'yicha qaror loyihasini viloyat hokimligiga kiritish.	2025-yil aprel	-	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi, Iqtisodiyot va moliya bo'limi
11	Boshqaruv servis kompaniyalari tomonidan yangi xizmatlarni yo'lga qo'yish orqali kambag'al aholi bandligiga ko'maklashish.	1. Boshqaruv servis kompaniyalari tomonidan talab yuqori 5 – 10 turdagi yangi xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish. Bunda ko'p kvartirali uylarning mulkdorlariga birlashtirilgan tutash yer uchastkalarida shaharsozlik norma va qoidalariga amal qilgan holda savdo-servis nuqtalarini tashkil etish hisobiga 10 nafar kambag'al oilalar a'zolari bandligini ta'minlash.	2025-yil davomida	Tashabbuskorlar mablag'lari, tijorat banklari kreditlari	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi, tijorat banklari
12	Ko'p kvartirali uylarni boshqarish organlari tomonidan hududlarni ko'klamzorlashtirish va atrof-muhitni muhofaza qilish loyihalari orqali kambag'al aholi bandligiga ko'maklashish.	Ko'p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalarini obodonlashtirish va yashil hududlarni tashkil qilish doirasida 6 nafar kambag'al oilalar a'zolarini bandligini ta'minlash.	2025-yil davomida	Mahalliy budjet mablag'lari	Tuman hokimining o'rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi
V. Elektron tijoratni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish					

13	Kambag'al oila a'zolari uchun o'quv kurslarini tashkil etish.	1. Yoshlar uchun 4 ta yo'nalishda (xorijiy tillar, elektron tijorat, marketing va SMM) bepul bir oylik masofaviy o'qitishni tashkil qilish. Bunda zarur sharoiti mavjud bo'lmagan shaxslar uchun tumandagi maktablarda kompyuter xonalari ajratiladi. 2. Masofaviy o'qishni muvaffaqiyatli tamomlagan kambag'al oilalar farzandlarini professional IT-kasblar bo'yicha 6 oylik intensiv kurslarda o'qitish.	2025-yil mart-aprel 2025-yil 1-dekabr gadar	Ijrochilar mablag'lari	Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi, "Inson" ijtimoiy xizmatlari markazi, Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi
14	Elektron tijoratga xizmat ko'rsatish markazi faoliyatini yo'lga qo'yish.	1. Tuman pochta aloqasi bo'limlarida elektron tijoratga xizmat ko'rsatish markazlarini ishga tushirish. 2. Yirik marketpleyslar va tadbirkorlar bilan hamkorlikda ushbu markazda tovarlarni onlayn sotishni yo'lga qo'yish.	2025-yil avgust 2025-yil sentabr	Ijrochilar va tashabbuskorlar mablag'lari	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari, Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
VI. Kasbiy, oliy, maktabgacha va maktab ta'limi tizimida kambag'al oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash					
15	Kambag'al oilalar farzandlarini kasbiy ta'lim tashkilotlarida davlat grantida o'qitish.	1. Texnikumga sanoat hamkori sifatida ish beruvchi korxonalar va tashkilotlarni biriktirib, o'quvchilar amaliyotini tashkil etish.	2025 - 2027 yillar	Davlat budjeti mablag'lari	Iqtisodiyot va moliya bo'limi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
16	Tumanda ishsiz fuqarolarni kasbiy ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli kurslarda o'qitish.	Hokim yordamchilari taklifi asosida 40 ta mahalladagi 400 nafar ishsiz fuqarolarni qisqa muddatli kasb-hunar kurslariga jalb qilish.	2025-yil davomida	Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari	Iqtisodiyot va moliya bo'limi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi

17	Kambag'al oila farzandlarini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish.	Tadbirkorlarni jalb qilgan holda og'ir toifadagi mahallalarda nodavlat oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish. Bunda kambag'al oila farzandlari maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinadi.	2025-yil davomida	Davlat budjeti va tashabbuskorlar mablag'lari	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Iqtisodiyot va moliya bo'limi, "Inson" ijtimoiy xizmatlari markazi
VII. Nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat faoliyatiga jalb qilish					
18	Nogironligi bo'lgan shaxslar mehnat faoliyatini olib borishi uchun mavjud bo'lgan to'siqlarni bartaraf etish hamda jamoaga moslashuvini ta'minlash.	Subsidiya ajratish mexanizmini sinovdan o'tkazish.	2025-yil aprel	Davlat budjeti va Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari	"Inson" ijtimoiy xizmatlari markazi
VIII. Og'ir toifadagi mahallalarda aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha «yangi jamoat ruhi»ni yaratish					
19	Boqimanda kayfiyatdagi aholini daromadli qilish va ularga motivatsiya berish bo'yicha «Farovon hayotga ilk qadam» loyihasini amaliyotga joriy etish.	Tumanda mahalla servis kompaniyalarini tashkil etish orqali kambag'al oila a'zolari bandligini ta'minlash.	2025-yil yanvar - iyul	Hisob-kitoblar asosida	O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi

20	Aholini sogʻlom turmush tarziga keng jalb qilish.	1. Ogʻir toifadagi mahallalarda «Salomatlik yoʻlagi»ni tashkil etish.	2025-yil may	Ijrochilar mablagʻlari	Tuman hokimining oʻrinbosari, Sport maktabi, Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi tuman boʻlimi, «Nuroni» jamgʻarmasi tuman boʻlimi, Oila va xotin-qizlar tuman boʻlimi, Yoshlar ishlari agentligi tuman boʻlimi,
----	---	---	--------------	------------------------	---

Mingbuloq tuman hokimining
2025-yil 6-fevraldagi
54-6-81-Q/25-son qaroriga
5-ilova

**Mingbuloq tumanida O‘rmon fondi yerlarida sanoatbop, manzarali va mevali daraxt turlaridan iborat o‘rmonlar barpo etish,
ko‘chatxonalar tashkil etish va dorivor o‘simliklar yetishtirish bo‘yicha**

MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

№	Tuman nomi	Ajratiladigan maydon (gektarda)	shundan				Kambag‘al oilalar a‘zolari bandligini ta‘minlash
			o‘rmon barpo etish (cho‘l o‘simliklari, tez o‘sovchi daraxtlar va butalar)	ko‘chatxona barpo etish (manzarali va mevali daraxtlar, butalar)	Dorivor o‘simliklar yetishtirish (na‘matak, lavanda, moychechak, dalachoy, tog‘rayxon)	qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirish (donli, dukkakli, poliz ekinlari)	
1	Mingbuloq tumani	16	0,5	0,5	10	5	16

Mingbuloq tuman hokimining
2025-yil 6-fevraldagi
54-6-81-Q/25-son qaroriga
6-ilova

**Mingbuloq tumanida kambag'allik va ishsizlikni keskin kamaytirish bo'yicha
MAQSADLI KO'RSATKICHLARI**

№	Tuman nomi	Аҳоли сони, (минг киши)	Маҳалла-лар сони	Аҳолини даромадли меҳнат билан банд қилиш (нафар)	шундан	тадбиркорликка жалб қилиш	Аҳолини камбағаллик-дан чиқариш (нафар)	Кредит ажратиш (млрд.сўм)	дастурлар доирасида
					банклар томонидан			кичик ва ўрта бизнесга	
1	Mingbuloq tumani	139	40	21768	5817	8779	7006	494,1	89,8

Mingbuloq tuman hokimining
2025-yil 6-fevraldagi
54-6-81-Q/25-son qaroriga
7-ilova

**Mingbuloq tumanida kambag'allik va ishsizlikni keskin kamaytirishga ko'maklashish bo'yicha
ISHCHI GURUH TARKIBI**

№	F.I.Sh		Lavozimi
1.	<i>A.Abdusalomov</i>	-	Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari, Ishchi guruh rahbari
2.	<i>Z.Axmadjonov</i>	-	Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi boshlig'i, Ishchi guruh rahbari o'rinbosari
3.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	-	Tuman prokuraturasi vakili
4.	<i>Z.Jo'rabayev</i>	-	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
5.	<i>J.Anvarov</i>	-	Davlat soliq inspeksiyasi bo'shlig'i
6.	<i>A.Shodmonov</i>	-	Kadastr agentligi tuman bo'limi boshlig'i
7.	<i>X.Inamov</i>	-	O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tuman Kengashi raisi
8.	<i>K.Mirzaliyev</i>	-	AT «Xalq banki» Mingbuloq BXM rahbari
9.	<i>A.Qo'chqarov</i>	-	«Agrobank» ATB Mingbuloq filiali rahbari
10.	<i>O.Ergashev</i>	-	«Mikrokreditbank» ATB Mingbuloq BXO rahbari
11.	<i>O.Qodirov</i>	-	Mahallalar uyushmasi tuman bo'limi boshlig'i

Izoh: Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.